



PROSPECTS FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL PERSONNEL TRAINING SYSTEM AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT

Abduqosim Abdulxakimovich Tojaliyev
Associate Professor of Fergana State University
a.tojaliyev@mail.ru
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Innovation, civilization, personnel, information processes, university, global character, innovative ideas, innovative approach.

Received: 20.05.26
Accepted: 21.05.26
Published: 22.05.26

Abstract: The following article indicates that the research on the national system of innovative development and personnel training has not been specifically studied as a separate socio-philosophical problem. Since the analysis of scientific works on the dialectics of the national system of innovative development and personnel training, the role of innovations in the integration of "Science-Education-Production" as a separate subject is not sufficiently substantiated, this dissertation work attempts to substantiate the importance of the national system of innovative development and personnel training in ensuring social progress.

YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA MILLIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Abduqosim Abdulxakimovich Tojaliyev
Farg'ona davlat universiteti dotsenti
a.tojaliyev@mail.ru
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Innovatsion, sivilizatsiya, kadrlar, informatsion jarayonlar, universitet, global xarakter, innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv.

Annotatsiya: Quyidagi maqola tadqiqotlar innovatsion rivojlanish va kadrlar tayyorlashning milliy tizimi alohida ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida maxsus o'rganilmaganligidan dalolat beradi. Innovatsion rivojlanish va kadrlar tayyorlash milliy tizimi dialektikasiga oid ilmiy

ishlarining tahlili, “Fan-ta’lim-ishlab chiqarish” integratsiyasida innovatsiyalarning roli alohida predmet sifatida yetarli asoslanmaganligi bois, ushbu dissertatsiya ishida innovatsion rivojlanish va kadrlar tayyorlash milliy tizimining ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashdagi ahamiyatini asoslashga harakat qilingan.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ

Абдуқосим Абдулҳакимович Тожа́лиев

Доцент Ферганского государственного университета

a.tojaliev@mail.ru

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Инновации, цивилизация, персонал, информационные процессы, университет, глобальный характер, инновационные идеи, инновационный подход.

Аннотация: В данной статье указывается, что исследование национальной системы инновационного развития и подготовки кадров не рассматривалось как отдельная социально-философская проблема. Поскольку анализ научных работ по диалектике национальной системы инновационного развития и подготовки кадров недостаточно обосновывает роль инноваций в интеграции «Наука-Образование-Производство» как отдельного предмета, данная диссертационная работа направлена на обоснование важности национальной системы инновационного развития и подготовки кадров в обеспечении социального прогресса.

Kirish. Dunyoda oliy ta’lim samaradorligi (efficiency of higher education) borasida hozirgi kunda turli xil qarashlar, ta’riflar, izohlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim tizimining samaradorligi bevosita oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar, ularning salohiyati, sohasi bo’yicha mutaxassislik ko’rsatkichi, ish bilan ta’minlanganligi, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi, professor-o’qituvchilarning ilmiy salohiyati va boshqa xususiyat va jihatlarga bog’liqligi bilan izohlanadi. Zero, zamonaviy innovatsion bilimlar

mazmuni malakali kadrlar tayyorlashda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, malakali kadrlar tayyorlash tizimini innovatsion rivojlantirishga oid tadqiqotlarga bo‘lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta‘limga innovatsiyalarni joriy etish zarurligi oliy ta‘lim muassasalarining iqtisodiy-moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash va xususiylashtirish, ko‘rsatilayotgan oliy ta‘lim xizmatlarini jahon standartlariga muvofiq diversifikatsiya qilish, oliy ta‘lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishiga shart-sharoit yaratib berish va qo‘llab-quvvatlash, oliy ta‘lim muassasalarining o‘z sohasi bo‘yicha universallashtirishni ta‘minlash va abituriyentlarni qamrab olish ko‘lamini kengaytirish, oliy ta‘lim dargohlariga kirish imtihonlarini soddalashtirish va ta‘lim berish jarayonini kuchaytirish hamda ta‘lim sifatini oshirish kabi jihatlarda namoyon bo‘lmoqda. Oliy ta‘lim tizimini isloh qilishni “Innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlash”[1] va mazkur jarayonda oliy ta‘lim tizimining rivojlanishida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi, olib borilayotgan ta‘lim siyosatini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu borada innovatsion rivojlanish va kadrlar tayyorlash milliy tizimining jamiyat hamda shaxs kamolotiga ta‘sirini va ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlashdagi o‘rnini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya. Xorijlik tadqiqotchilar M.Porter, Y.A.Shumpeter innovatsion rivojlanishning kadrlar tayyorlash tizimi bilan aloqadorligini ijtimoiy-iqtisodiy shakllarini asoslagan. V.A.Siglyayev innovatsion tizimni shakllantirishda ta‘lim va ilmiy faoliyat subyektlarini o‘zaro aloqadorligini ilmiy tahlil qilgan. A.Ya.Kuznetsova, N.N.Vlasyuk, E.K.Pogorskiy, M.P.Chelombitskaya, V.B.Agranovich “Davlat-biznes-ilm-fan” uchligidagi o‘zaro kadrlar tayyorlash sifati va ularning kelgusidagi faoliyati bilan izohlanuvchi innovatsion rivojlanishning hamkorligini o‘rgangan. Shuningdek, Rossiya Fanlar Akademiyasi sotsial boshqaruv va sotsiologik texnologiyalar institutining «SORUST» markazi, Singapur ilmiy markazida kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion rivojlanish va innovatsion faoliyatning ahamiyati tadqiq etilmoqda.

O‘zbekiston faylasuf olimlarining innovatsion rivojlanish va kadrlar tayyorlash milliy tizimiga oid ilmiy tadqiqotlar ko‘p bo‘lmasa-da, uning ba‘zi jihatlari tadqiq etilganligini e‘tirof etish lozim. A.Egamberdiyev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida O‘zbekiston sharoitida yoshlarda innovatsion ongning shakllanish jihatlari, A.Saitqosimov fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish asosiy omil ekanligini, B.Qodirov O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayonlarini ilmiy tadqiqot ishlarida asoslagan.

Muhokama. Innovatsion taraqqiyot zaruriyati haqidagi dastlabki falsafiy fikrlar tarixiy manbalar, mutafakkirlarning asarlarida yangilikka, takomillashishga intilish, jamiyat rivoji uchun muntazam harakat qilish mazmunida uchraydi. Innovatsion rivojlanish inson faoliyatining ajralmas qismini tashkil etadi va muntazam sur'atda bilimli, jamiyat rivojlanishining obyektiv va subyektiv jarayonlarini chuqur tahlil qila oladigan shaxslar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham jamiyat rivojlanishi maxsus bilimlarga ega bo'lgan kishilar faoliyati bilan bog'langan, ya'ni malakali mutaxassislar tayyorlash, ularni maxsus dasturlar asosida o'qitish insoniyat tarixida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan.

Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga xos o'zgarishlar o'zining uzluksizligi, shiddatkorligi, sur'ati, jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olganligi va global xarakteri bilan o'tmish voqealaridan tubdan farq qiladi. Bu xususiyatlar amalda umumjahon hamda jamiyat hayotining barcha tomonlariga ham xosdir. Bu davrda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, fuqarolik jamiyati institutlari qaror topmoqda, ishlab chiqarishda kadrlar salohiyatining ustuvorligi ortib bormoqda, yangi taraqqiyot bosqichi kasbiy bilimlarni ishlab chiqarishning barcha sohalariga tatbiq etuvchi aqliy mehnat tusini olmoqda. Bugungi jamiyat o'z navbatida taraqqiyotning innovatsion bilimlarga va kadrlarning raqobatbardosh korpusiga tayanadigan yangi yo'nalishlarini yuzaga keltirdi.

Binobarin, jamiyat a'zolari, shu jumladan, shakllanayotgan malakali kadrlar korpusi, innovatsion bilimlar oqimi, ixtisoslik uchun zarur bo'lgan zamonaviy axborotlar majmuasining yangi turlarini o'zlashtirishga ehtiyoj sezmoqda. Hozirgi davrda aksariyat mutaxassislarning jadal o'zgarishlarga tayyor emasligi, ularning bilimi, malakasi va ko'nikmasi islohotlar talablariga javob bermasligi ma'lum bo'ldi. Bunday holat fuqarolik jamiyati rivojlanish sharoitidagi islohotlar tizimida malakali kadrlar rolining muhimligi va ular salohiyatini muntazam yuksaltirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, industrial sivilizatsiyadan innovatsion taraqqiyotga o'tish jarayoni chuqurlashib bormoqda. Bu jarayon bevosita yangi innovatsion bilimlarga ega bo'lgan malakali kadrlar faoliyatiga bog'liq. Bunday murakkab ijtimoiy vazifa yechimida xorijiy tajribadan samarali foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Qanday og'ir bo'lmasin, tan olishimiz kerak, yurtimiz ravnaqi uchun eng zarur yo'nalishlar bo'yicha izlanuvchan, iste'dodli yosh kadrlarni chetda, rivojlangan davlatlarda o'qitishga majburmiz. Shuning uchun ham oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy o'quv yurtlari, mamlakatimizdagi ilmiy markazlar "El yurt umidi" jamg'armasi bilan yaqin hamkorlikda samarali ish olib borishi kerak"[2].

Milliy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ta'limning innovatsion rivojlanishdagi o'rnining oshib borishi natijasida, jamiyat uchun yangi hisoblangan xususiy bog'chalar, xususiy maktablar va xususiy universitetlar tizimini takomillashtirish, rivojlantirish vazifasini vujudga keltirdi. Ushbu jarayonning samarali kechishi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan yetakchi mutaxassislarni xorijiy mamlakatlardan taklif etish yoki ularning maslahatlaridan foydalanish lozimligi zamonaviy ta'limni boshqarish bo'g'inida ishlayotgan xodimlar tomonidan chuqur anglandi.

Yuqoridagilarga asoslanib qayd etish mumkinki, milliy kadrlar ongida barkamollikning ma'naviy fazilatlarini shakllantirish uchun ularning dunyoviy va diniy bilimlarga egaligi, o'z mutaxassisligini chuqur bilishi dunyoqarashi va malakalari tizimini hamda jamiyat qa'rida sodir bo'layotgan hodisalarga ongli munosabati hamda salbiy mafkuraviy ta'sirdan o'zini himoyalash qobiliyatini tarbiyalash jamiyatimiz hamda milliy davlatchiligimizni mustahkamlash strategiyasi asoslaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion g'oyalarning oliy ta'lim tizimiga muntazam joriy etilishi orqali tayyorlanayotgan bakalavr va magistrning yurtimiz manfaatlarini jahon miqyosida himoya qila olish imkoniyatlari shakllantiriladi. Muammoga bunday munosabat bevosita mamlakatimizning yaqin kelajakda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishga bo'lgan strategik maqsadining amaliyotdagi yechimi bilan bog'liqdir.

Masalaning falsafiy ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, milliy taraqqiyot davomida ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda uchrayotgan muammolar yechimi ham bevosita raqobatbardosh kadrlarning tarbiyalanish jarayoni, salohiyati, malakasi va samarali faoliyat olib borishini taqozo qiladi.

Natijalar. Oliy ta'lim muassasalarida 1098 nafar respondentlar ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari tasdiqlaydiki, innovatsion rivojlanish jarayoniga kirish, uni yana-da takomillashtirish zarurdir. Respondentlarga berilgan "Bugungi kunda innovatsion dasturning tatbiq qilinishiga kadrlar yetishmovchiligi qay darajada ta'sir qilyapti?", degan savolga 376 nafari (34,2 foizi) juda kuchli ta'sir qilayotganligini ta'kidlasa, 606 nafari (55,2 foizi) "ta'sir qilyapti, desa bo'ladi", degan javobni belgilaganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi"dan xabardorligi to'g'risidagi savolga respondentlarning 712 nafari (64,8 foizi) "yaxshi bilishini" ta'kidlagan. So'rovnomadagi "hozirgi kunda 5 ta muhim tashabbusning amaldagi tadbig'ini ko'ryapsizmi" savoliga 386 nafar (35,1 foiz) respondent "albatta, ha" javobini belgilagan; "siz tahsil olayotgan o'quv yurtida (ishlab kelayotgan korxonada) so'nggi davrlarda innovatsion texnologiyalar,

g'oyalar qay darajada tatbiq qilingan?" so'roviga 356 nafar (32,4 foiz) respondentlar "ko'p" degan javobni bergan bo'lsa, 462 nafari (42,1 foizi) aksincha, "oz" javobini berganlar. Shuningdek, "Sizning fikringizcha innovatsion dasturlarni amalda tatbiq qilishda axolining qaysi qatlami ilg'or bo'lishi kerak?", degan savolga "talabalar va yoshlar" javobiga eng ko'p, ya'ni 356 nafar (32,4 foiz) respondentlar belgi qo'yganlar. "Siz tahsil olayotgan, ishlayotgan ta'lim muassasasi texnologik jixatdan qay darajada jihozlangan deb o'ylaysiz" savoliga 584 nafar (53,2 foiz) respondent "yaxshi jixozlangan desak bo'ladi" deya munosabat bildirsa, respondentlarning muayyan bir qismi, ya'ni 270 nafari (24,6 foizi) jihozlanishning talablarga javob bermasligini qayd etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yangi taraqqiyot bosqichida milliy kadrlar tayyorlash tizimini innovatsion rivojlantirish davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy globallashuv, raqamli transformatsiya va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan hamda zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy vazifasiga aylanmoqda. Shu jihatdan innovatsion yondashuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar va xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish milliy kadrlar salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, sun'iy intellekt hamda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish innovatsion rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash orqali mehnat bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, milliy kadrlar tayyorlash tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tamoyillarini uyg'un holda rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy mutaxassis nafaqat professional bilim va ko'nikmaga, balki yuksak ma'naviyat, ijtimoiy mas'uliyat va innovatsion tafakkurga ham ega bo'lishi zarur.

Demak, milliy kadrlar tayyorlash tizimining innovatsion rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ta'lim sohasida innovatsion islohotlarni izchil davom ettirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: O'zbekiston, 2019.74-75 bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.– B.19-20.
3. Агранович В. Б. Инновации в транзитивном обществе: социально - философский анализ. Автореферат дисс..кан. филос. наук .Томск, 2007.
4. Begmatov A.S. Innovatsion ong: mohiyati, funksiyalari va shakllanish shartlari. – Toshkent: 2016.
5. Ермасов С. В., Ермасова Н. Б. Инновационный менеджмент: учебник для вузов. - Москва.: Высшее образование, 2007. - 505 с.
6. Егоров Е.В. Государственная научно-инновационная политика в РФ и высшей школе / Е.В. Егоров // Инновационное развитие высшей школы России: монография / Под ред. Е. В. Егорова, С. А. Карева. – М: МАКС Пресс, 2010. – 215 с.
7. Jonixonov M. Pedagoglar uchun mahorat darslari. Halq so'zi, 2016-yil 4-sentyabr.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-Toshkent.:A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti,1993.159-160 b.
9. Arastu. Axloqi kabir.Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2016. 117-231 b.
10. Tojaliyev, A. A. (2020, December). The Role Of Innovative Activities Of Highly Qualified Personnel In The Strategic Development Of The Regions. In International scientific and current research conferences (pp. 154-156).
11. Tojaliyev, A. A. (2019). The necessite of using innovations in new developing process higher education. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(4), 132-136.
12. Tojaliyev, A. A. Perfection of bachelor degree students training in the conditions of innovative development. Published European Journal of Business Social Sciences (EJBSS), 7, 133-141.
13. Tojaliyev, A., & Tojaliyeva, G. (2021). Innovative directions in the field of pedagogical education. Теория и практика современной науки, (5), 22-25
14. Tojaliyev, A.,«Zamonaviy fan va ta'limning dolzarb masalalari». Ilmiy to'plam. – Farg'ona 2017, - B.58-59
15. Tojaliyev, A. A. « O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini jamiyatga tadbiiq qilishda falsafa fanining o'rni va ahamiyati ». Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Farg'ona 2019 B-86-89.